

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI
TARBIYALANUVCHILAR UCHUN DAVRA SUHBATI:
“MEHNATSEVAR BOLALAR!”

Davra suhbatining maqsadi: Bolalarni kattalarga sidqidildan yordam berishga odatlantirish;

O‘zi qilgan ishning boshqalarga foydasi borligini bilishga, boshlagan ishini oxiriga yetkazishga undash;

O‘z mehnatining natijasidan quvonish hissini shakllantirish, mehnatsevarlikni tarbiyalash;

Qiz bolalarni ota-onasiga uy ishlariga yordam berishga odatlantirish, o‘g‘il bolalarga dadalariga yordamchi ekanini, oilada og‘ir ishlarni o‘g‘il bolalar bajarish kerakligi haqida tushuncha berish.

Kerakli jihozlar: Mehnat turlari bo‘yicha mazmunli suratlar, bolalarning guruhda yoki uyda mehnat jarayonida olingan fotosuratlari.

Kutilayotgan natija: Bolalarni ota-onasiga sidqidildan yordam berishga odatlanadi;

O‘zi qilgan ishning boshqalarga foydasi borligini bilishga, boshlagan ishini oxiriga yetkazib, foydali odam bo‘lishini biladi;

Mehnatning natijasini ko‘rganda quvonishni tushuntirish, mehnatga to‘g‘ri munosabat shakllanadi.

Kirish qismi:

Tarbiyachi: Biz bugun mehnatsevar bolalar haqida suhbatlashamiz. Qanday bolalarni mehnatsevar bolalar deb ataymiz? Qani, kim aytadi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: To‘g‘ri, kiyimlarini tartibli saqlaydigan, o‘yinchoqlarni o‘z joyiga yig‘ishtirib qo‘yadigan, do‘stlariga kiyinishda yordam beradigan bolalarni mehnatsevar bolalar deymiz.

Hayotiy saboq

Bugun ertalab Lola Nodirga tuflisining ipini bog‘lashga yordam berib yubordi, kiyimini javonga ilib qo‘ydi. Lola do‘stiga yordam berib juda to‘g‘ri ish qildi. Bo‘lmasa Nodir tuflisini ipini bosib, yiqilib tushishi mumkin edi. Men Lolaning do‘stiga qilgan yordamini ko‘rib suyundim va unga “Barakalla, ona qizim” deb aytdim. Lola o‘zining to‘g‘ri ish qilganini eshitib juda xursand bo‘ldi. Unda yana birorta foydali ish qilishga istak paydo bo‘ldi.

Ko‘rdingizmi, bolalar mehnatning katta-kichigi bo‘lmaydi. Asosiysi, mehnatni oxirigacha qilish. O‘zingizni qilgan ishingizdan xursand bo‘lish.

Bolalar, mana, biz ham har kuni guruhimizda navbatchi bo‘lamiz. Navbatchi qanday ishlarni bajaradi? Uning vazifasi nima?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: To'g'ri, navbatchilarning ishi kattalarga yordam berish. Navbatchilar guruhda: nonushta vaqtida stollarga non solingan likopchalarni qo'yadilar, mashg'ulot boshlanishidan oldin qog'oz, qalamlarni qo'yib chiqadilar, mashg'ulot tugagach, qalamlarning hammasini stoldan yig'ib olib, so'ngra ochilgan tomonlarini bir tomonga qilib taxlab, ularni ochilmagan tomonini pastga qilib qalamdonga solib, uni tokchaga olib borib qo'yadilar. Sayr vaqtida maydondagi barglarni terib oladilar. Bularning barchasi mehnat deyiladi. Siz bu vazifalarni bajarishda yordam bersangiz, demak sizni mehnatsevar bola deymiz.

Mehnatsevar bolalar yana qanday ishlarda kattalarga yordam berishi mumkin?

Siz uyda ota-oningizga qanday ishlarda yordam berasiz?

(Tarbiyachi bolalarning uylaridan olib kelgan suratlari, yoki ushbu mavzuga mos suratlar yuzasidan suhbat o'tkazadi).



Tarbiyachi: Mana bu suratga qarang, E'zoza hovlini supuryapti. Demak, E'zoza uyda onasiga ana shunday yordamlashadi.

Zuhriddin gullarga suv quyaypti. Demak, Zuhriddin uyda onasiga gullarni parvarish qilishda yordamlashadi. Ular mehnatkash bolalar.

Kim mehnatkash bo'lsa, sog'lom bo'ladi. Katta bo'lganida esa zo'r muvaffaqiyatli inson bo'ladi. Katta yutuqlarga erishadi. Hamma unga havas qiladi.

Hozir mehnatkash bolalar haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Mehnatkash bolalar

<https://youtu.be/78e4PLRAYts>

Tarbiyachi: Mana, ko‘rdingizki, mehnat qilgan bolaning do‘stlari ko‘p bo‘ladi, hamma ularni yaxshi ko‘radi. Endi esa sizlarga mehnatkash bola haqida she‘r o‘qib beraman.

BITTA O‘ZIM

Kavsar Turdiyeva

Dadam deydi: “Quvonadi
Boqsam ko‘zim”.
Plastilindan uy qursam
Bitta o‘zim.
Buvim suyib erkalatar:
“Shirin qo‘zim”
Ertaklarni jim tinglasam
Bitta o‘zim.
Oyim deydi: “Mehnatsevar, dastyor qizim”
Supursam goh keng ayvonni
Bitta o‘zim...
Hamma qochar uydan, deya:
“Bersin to‘zim!”
Dod-voy solsam hovlimizda
Bitta o‘zim.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:

1. Bolajonlar, bugun biz nimalar haqida gaplashdik?
 2. Qanday bolalarni mehnatsevar bolalar deb ataymiz?
 3. Ota-onasining topshiriqlarini bajargan bolalarni kim deb ataymiz?
- Tarbiyachi suhbat yakunida bolalarni shirin so‘zlar bilan rag‘batlantiradi.

Xulosa

Tarbiyachi: Bolajonlar, mehnatsevar bola – bu o‘z ishini oxirigacha bajaradigan, kattalarga yordam beradigan va qilgan ishidan xursand bo‘ladigan boladir. Har biringiz kichkina bo‘lsangiz ham, uyda va bog‘chada foydali ishlar qilishingiz mumkin.

Esda tuting, kichik yordam ham katta quvonch keltiradi. Agar har kuni ozgina bo'lsa ham mehnat qilsangiz, siz yanada aqlli, odobli va hammaga yoqadigan bolalar bo'lib ulg'ayasiz.

Bolajonlar, bugungi mashg'ulotimiz shu yerda tugadi. Sizlar bilan birga suhbatlashish juda yoqimli bo'ldi. Hammangizga rahmat!